



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

**ANDIJON VILOYATIDAN O‘TUVCHI XALQARO AVTOMOBIL  
YO‘LLARIDA TRANSPORTLARING O‘TUVCHANLIGINI OSHIRISH  
HAMDA XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH.**

**INCREASING THE PASSABILITY AND ENSURING THE SAFETY OF  
TRANSPORTATION ON INTERNATIONAL HIGHWAYS PASSING  
THROUGH ANDIJAN REGION.**

**ПОВЫШЕНИЕ ПРОХОДИМОСТИ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ  
БЕЗОПАСНОСТИ ПЕРЕВОЗОК НА МЕЖДУНАРОДНЫХ  
АВТОМОБИЛЯХ, ПРОХОДЯЩИХ ПО АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ.**

**To‘raboyev Holmurod Rustamjon o‘g‘li  
Andijon mashinasozlik instituti.**


**Telefon +99899 499 46 08**

**E-mail: [holmurodturaboyev@gmail.com](mailto:holmurodturaboyev@gmail.com)**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Respublikamiz eksport-import salohiyati ortishi barobarida xalqaro yo‘llarida tashuvlarni jadallashtirish hamda harakat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birgalikda aholi yashash hududlarida transport infratuzilma obyektlarini qaytadan ko‘rib chiqish hamda 6 tasmali avtomobil yo‘lini tashkil bo‘yicha yechimlar berilgan.*

***Abstract:** In this article, as the export-import potential of our Republic increases, recommendations have been developed to accelerate transportation on international roads and ensure traffic safety. At the same time, solutions were provided for the revision of transport infrastructure facilities in residential areas and the organization of a 6-lane highway.*

***Аннотация:** В данной статье по мере увеличения экспортно-импортного потенциала нашей Республики разработаны рекомендации по ускорению перевозок на международных дорогах и обеспечению безопасности дорожного движения. При этом были предусмотрены решения по ревизии объектов транспортной инфраструктуры в жилых массивах и организации 6-полосной автодороги.*





**Kalit soʻzlar soʻzlar va iboralar:** eksport, import, transport-kommunikatsiya, avtoturargoh, toʻxtash joylari, harakat xavfsizligi, tranzit yuklar, halqa yoʻli, infratuzilma, velo yoʻlak, truck parking.

**Keywords words and phrases:** export, import, transport-communication, parking lot, parking places, traffic safety, transit cargo, ring road, infrastructure, bicycle lane, truck parking.

**Ключевые слова и фразы:** экспорт, импорт, транспорт-коммуникация, автостоянка, парковочные места, безопасность дорожного движения, транзитные грузы, кольцевая дорога, инфраструктура, велодорожка, стоянка грузовых автомобилей.


### KIRISH

Soʻnggi yillarda tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirishga doimiy eʼtibor qaratilmoqda.


Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Eksportni ragʻbatlantirish agentligi tashkil etilib, eksport hajmini oshirish uchun eksport qiluvchi korxonalariga moliyaviy koʻmak berish mexanizmlari yaratildi.

Jahon bozorlarida raqobat keskinlashib borayotgan sharoit mahsulotlar eksporti hajmini oshirish orqali yangi bozorlarga kirib borish va anʼanaviy bozorlarda oʻz oʻrnini mustahkamlash uchun eksport qiluvchilarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashni yanada kengaytirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. [1]

**Ekspost statistikasi 2023 yil yanvar-iyul oylari uchun**




**1-rasm**





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

Birgina 2023-yil 9-oyida Respublikamizda tashqi savdo aylanmasi **44,7 mlrd AQSh** dollaridan oshgan. 2023-yil davomida eksport va import statistikasi (1-rasm, 2-rasm) keltirilib o‘tilgan. Mazkur statistikaga asosan mamlakatimizda ishlab chiqarish, sanoat hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yildan yilga o‘shishi mavjud eksport va import tovarlariga bevosita ta’sir etib ularning yildan yilga o‘shishiga erishilmoqda. [2,3]



### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Harakat xavfsizligini oshirish va yuk mashinasi haydovchilariga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash: Aholi punktlaridagi “Yovvoyi mashinalar to‘xtash joyi” katta yo‘l harakati xavfini keltirib chiqaradi. Ko‘proq to‘xtash joylarining mavjudligi va shuning uchun yovvoyi to‘xtash joylarining kamayishi port hududida harakat xavfsizligini oshiradi. Bundan tashqari, avtoturargohlardagi mavjud to‘xtash joyi yuk mashinalari haydovchilariga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini taqdim etadi. [4]

Avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta‘minlash haqida bo‘lib yirik shaharlarda transportni rivojlantirish strategiyasi jamoat avtomobil transportining shaxsiy avtomobil transportiga nisbatan imtiyozini ta‘minlashga va shaharda avtomobil transportidan foydalanishni kamaytirishga qaratilgan. [5]


### NATIJALAR





Transport-kommunikatsiya tarmog‘ini modernizatsiyalash va tranzit salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilishi mamlakatimizning xalqaro transport kommunikatsiyalariga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

Mamlakatdagi ishlab chiqarish hamda tranzit sohalarda 2023-yil 9-oylik davomida avtomobil, temir yo‘l, quvur yo‘li hamda havo yo‘llari orqali **1058,1 mln.tonna** yuk tashilgan (3-rasm). Shundan 90,6 % avtomobil transportiga to‘g‘ri kelmoqda. [6]




Birgina Andijon viloyatida 2023-yil yanvar-sentabr oylarida **36,6 mln.tonna**, yuk aylanmasi **774,3 mln tonna-km**.ni tashkil etmoqda. Mazkur yuk oqimlarida yildan yilga o‘shish sur‘atlari kuzatilmoqda. Yuk oqimlarini xalqaro avtomobil yo‘llarida ko‘payishi avtomobil yo‘llaridagi harakat xavfsizligiga ta’sir etib mazkur holatlarni 5 yillik 10 yillik rejalashtirish ishlarini amalga oshirishga olib kelmoqda.

### MUHOKAMA

Avtomobil transportida tashilgan yuklar bevosita avtomobil yo‘llariga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Lekin hozirda mavjud umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari – 42 695 km.ni tashkil qiladi (Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi balansida). Shu jumladan: xalqaro ahamiyatdagi – 3 981 km, davlat ahamiyatidagi – 14 100 km, maxalliy ahamiyatdagi – 24 614 km. Respublika xududida joylashgan ko‘chalari, ichki xo‘jaliklararo yo‘llari, qishloq qo‘chalari, shahar tipidagi qishloq ko‘chalari – 116 560 km.ni tashkil qiladi.

Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘llaridagi tashuvlar mamlakat iqtisodiyotidagi muhim o‘rinni egallaydi. Chunki eksport import va tranzit yuklar





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

mamlakatning iqtidodiy-ijtimoiy holatini yaxshilab aholi turmush darajasini oshishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Birgina Andijon viloyati orqali o'tuvchi xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'li 103 kilometrni tashkil etadi. Ushbu A373 "M39 avtomobil yo'li-Guliston-Angren-Qo'qon va Andijon orqali-O'sh" avtomobil yo'li orqali xalqaro va tranzit o'tuvchi avtomobillar soni yildan yilga o'sib bormoqda. Xalqaro yo'llarda transportlar oqimimini o'sishi xalqaro yo'llardagi harakat xavfsizligi, urbanizatsiya, xizmat ko'rsatish hamda infratuzilma obyektlariga bevosita ta'sirni ortishiga olib keladi.

Shu bilan birgalikda 103 kilometrlik uchastkasining 30 kilometrlik qismi aholi punktlari orqali o'tishini inobatga olsak, mazkur qismlarda harakat havfsizligini ta'minlash dolzarb masalaga olib keladi. Aholi punktlari bo'lgan joylarda 66 ming, aholi punktlari bo'lmagan joylarda 21 ming fuqaro yashaydi.

Aholi yashash manzillarida bugungi kun holatiga yo'l-infratuzilma obyektlati avtobus bekatlari, alohida yo'laklar, piyodalar yo'lakchalari va veloyo'laklar tashkil etilishi qoniqarli darajada emas. Shu bilan birgalikda A373 "M39 avtomobil yo'li-Guliston-Angren-Qo'qon va Andijon orqali-O'sh" xalqaro avtomobil yo'lining 103 km.lik masofasining 43 kilometrlik qismi 6 tasmalik, 39 kilometrlik qismi 4 tasmalik va 21 kilometrlik qismi 2 tasmalik avtomobil yo'li hisoblanadi. Bu esa mazkur hududlardagi harakat xavfsizligi bilan bog'liq yechimlarni optimallashtirishga olib kelib, alohida yechimlar ishlab chiqishga sabab bo'ladi.

### XULOSA

Andijon viloyatidan o'tuvchi xalqaro avtomobil yo'llarida transportlarning o'tuvchanligini oshirish hamda xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilanishi kerak:

- xalqaro avtomobil yo'llaridagi transport infratuzilma obyektlarini qaytadan texnik shartlar asosida ko'rib chiqish
- xalqaro yo'nalishlardagi avtomobil yo'llarini 6 tasmalikga o'tkazish
- xalqaro avtomobil yo'lga tutash aholi punktlari piyodalar yo'lakchasi va velo yo'laklarni tashkil etish
- har bir tuman markazida hamda Andijon shahrida kichik halqa yo'lini tashkil etish





- xalqaro avtomobil yo‘llarida Truck parkinglarni joriy etish hamda chet el transport vositalari haydovchilarini ish vaqtiga rioya etishlarini nazorat qilish tizimini yaratish.
- Mazkur talablar rivojlanib borayotgan transportlarda yuk tashish istiqbollari poydevor bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4707 Qarori. <https://lex.uz/docs/-4806730>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi rasmiy telegramm kanali. [https://t.me/statistika\\_rasmiy/4009](https://t.me/statistika_rasmiy/4009).
3. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy sayti. <https://miit.uz/oz/pages/statistika-tovarooborota>.
4. Aslanov N., Nurdinov M. SHAXARLARARO VA XALQARO YUK MASHINALARI UCHUN TO‘XTASH JOYLARINI MASOFAVIY BOSHQARISH METODI //Yevraziyskiy jurnal matematicheskoy teorii i kompyuternyx nauk. – 2022. – T. 2. – №. 13. – S. 65-74.
5. Yusupov A. R.M Khamrakulov. AVTOMOBIL YO‘LLARIDA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH. "Экономика и социум" № 4(107)-1 2023, 1070-1073.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi rasmiy sayti. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>.

